BOOKTRELLER TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARGA TARBIYA DARSINI O'QITISH METODIKASI

Mohinur Zohidjon qizi Nurmamatova
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan yangilanishlar, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va bolalarning qiziqishlari o'zgarib borayotganligi ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Ushbu tezisda Booktreller texnologiyasi asosida boshlang'ich sinflarga tarbiya darsini o'qitish metodikalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Booktretller texnologiyasi, boshlang'ich ta'lim, axloqiy tarbiya, pedagogik metodika, innovatsion texnologiya, estetik qadriyatlar, interaktiv ta'lim, axloqiy fikrlash.

Аннотация: Современные инновации в образовании, стремительное развитие технологий, меняющиеся интересы детей требуют новых подходов к образовательному процессу. Именно начальный этап образования считается важнейшим периодом в формировании личности ребенка. В данной диссертации представлена подробная информация о методике преподавания предметов начальной школы с использованием технологии Буктреллер.

Ключевые слова: Буктреллер-технология, начальное образование, нравственное воспитание, педагогическая методика, инновационные технологии, эстетические ценности, интерактивное образование, нравственное мышление.

Annotation: Today, the innovations taking place in the field of education, the rapid development of technologies and the changing interests of children require new approaches to the educational process. In particular, the primary education stage is the most important period in the formation of a child's personality. This thesis provides detailed information on the methods of teaching a lesson in elementary grades based on Booktreller technology.

Key words: Booktreller technology, primary education, moral education, pedagogical methodology, innovative technology, aesthetic values, interactive education, moral thinking.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalardan biri bu — **Booktretller** texnologiyasidir. Ushbu texnologiya asosan bolalarga kitob mazmunini qisqa videoroliklar orqali yetkazib berish, ularni tahlil qilish va his qilish orqali o'rganishni maqsad qiladi. Bunda o'quvchi nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida rollar ijro etadi, o'z fikrini bildiradi, voqealar rivojiga munosabat bildiradi. Booktretller texnologiyasining tarbiya darslarida qo'llanilishi bolalarning kitobga, ta'limga va tarbiyaga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni ijtimoiy faollikka undaydi va bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Ushbu tadqiqot aynan Booktretller texnologiyasi asosida tarbiya darslarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish, uni amaliyotda sinovdan o'tkazish va samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Booktretller texnologiyasining boshlang'ich sinflarda tarbiya darslariga ta'sirini aniqlash maqsadida tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot davomida dars jarayonlari, o'quvchilarning ishtiroki, ulardagi tarbiyaviy tushunchalarning shakllanishi va o'zgarishlar muntazam kuzatuv orqali o'rganildi. Tahlil uchun eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirildi. Eksperimental

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

guruhda Booktretller texnologiyasi asosida tarbiya darslari tashkil etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy usullar qo'llanildi. Har ikkala guruhda ham o'quvchilarning darsdagi faolligi, axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi, estetik didi va nutq madaniyati tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinflarda tarbiya darslariga Booktretller texnologiyasini joriy etishning samaradorligi chuqur tahlil qilindi. Ushbu texnologiyaning o'quvchilarga ta'sirini baholash uchun eksperimental tajriba o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirilib, ular ustida pedagogik kuzatuvlar, savolnomalar, suhbatlar hamda dars jarayonini videoanaliz qilish metodlari asosida tahliliy faoliyat olib borildi. Maqsad — Booktretller yordamida tashkil etilgan darslarning o'quvchilarning tarbiyaviy qarashlariga, darsga bo'lgan munosabatiga, ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tajribaviy ishlar davomida eksperimental guruh o'quvchilari bilan Booktretller texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda video-kitoblar ko'rildi, ular asosida rollar taqsimlanib, kichik sahnalar sahnalashtirildi. Shuningdek, muhokama va fikr almashish asosida dars yakunlandi. Nazorat guruhida esa darslar an'anaviy uslubda, o'qituvchining hikoya va tushuntirishlari orqali olib borildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhdagi o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish yuqori bo'ldi. Ular tarbiyaviy mavzularni nafaqat passiv ravishda tinglashdi, balki faol ishtirok etish orqali o'z fikrini erkin bayon qilish, muayyan ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdi. Ayniqsa, darsda rolli o'yinlar va sahnalashtirish metodlarining qo'llanilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ifoda qilish, nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Eksperimental guruhda darsdan oldin va keyin o'tkazilgan test va savolnomalar natijasiga ko'ra, axloqiy qaror chiqarish darajasi 38% dan 78% gacha oshgani kuzatildi. Bu esa tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning, xususan, Booktretller metodining amaliy ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. O'quvchilarda kitobga bo'lgan mehr, estetik did, badiiy tasavvur va madaniy saviya ham ijobiy o'zgargan. Shuningdek, o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga o'rgatish, o'zaro hurmat va hamkorlik ruhida fikr almashish holatlari ham tahlil natijalarida o'z aksini topdi.

Nazorat guruhidagi o'quvchilarda esa bu kabi ko'rsatkichlar ancha past bo'ldi. Ular darsda passivroq bo'lib, nutq faolligi va ijodiy yondashuv kamroq namoyon bo'ldi. Bu esa Booktretller texnologiyasining nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jarayonda ham ijobiy rol o'ynashini tasdiqlaydi. Shu asosda aytish mumkinki, Booktretller texnologiyasining boshlang'ich sinflar tarbiya darslarida qo'llanilishi o'quvchilarning shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Booktretller texnologiyasi boshlang'ich sinflarda tarbiya darslarini interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim vosita bo'la oladi. Ushbu texnologiya orqali o'quvchilarning nafaqat darsga bo'lgan qiziqishi oshadi, balki ularning axloqiy qarashlari, estetik didi, nutq madaniyati, ijtimoiy faolligi va guruhda ishlash ko'nikmalari ham rivojlanadi. An'anaviy usullarga qaraganda, Booktretller orqali tashkil etilgan darslar bolalarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ular darsni his etadi, fikr bildiradi, voqealarga baho beradi va badiiy asarni chuqur anglaydi. Ushbu metodikaning o'ziga xos jihati shundaki, u bolalarni kitob o'qishga rag'batlantiradi, hayotiy holatlarni tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ayniqsa, axloqiy va tarbiyaviy mazmunga ega asarlarni Booktretller texnologiyasi yordamida tahlil qilish orqali o'quvchilarning hayotiy qarashlari, axloqiy pozitsiyasi mustahkamlanadi. Shuning uchun ham mazkur texnologiyani boshlang'ich ta'limda, ayniqsa tarbiya darslarida keng joriy etish, pedagoglarning

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

malakasini oshirish jarayonlariga ham uni kiritish tavsiya etiladi. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim talablariga mos, o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi kuchli pedagogik vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolboeva, M. (2021). Media vositalari orqali ta'lim samaradorligini oshirish. Ta'lim va tarbiya jurnali, 4(2), 44–47.
2. Hasanboyeva, N. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. Ilmiy axborotlar, 3(5), 90–94.
3. Ziyonet.uz – O'zbekiston ta'lim portali: www.ziyonet.uz
4. Mayer, R.E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). New York: Cambridge University Press.
5. Robin, B. R. (2008). Digital Storytelling: A Powerful Technology Tool for the 21st Century Classroom. Theory Into Practice, 47(3), 220–228.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.